

## SHAXSDAGI AGRESSIV HOLATLAR VA MAFKURAVIY PROFILAKTIKA MUAMMOLARI

**G'anieva Halimaxon Axmatxonovna**

*Farg'onan davlat universiteti, Psixologiya kafedrasini dotsenti.*

**Meliboev Doniyor Xayotjon o'g'li**

*Psixologiya yo'nalishi 1-kurs magistri*

**Annotatsiya.** Maqolada o'smirlarda deviant xulq-atvorni kelib chiqishiga asos bo'lувчи agressiv holatlar hamda ularda agressiyaning qaysi turlari ko'proq namoyon bo'lishi va bunga qanday omillar sabab bo'lishining nazariy va amaliy jixatlari o'rGANilgan.

**Tayanch so'z va iboralar:** Shaxs, o'smir, agressiya, deviant, xulq-atvor, frustratsiya, tajovuzkorlik, jismoniy agressiya, bilvosita agressiya, jahdorlik, negativlik, hafa bo'lish, yolg'on gumonsirash, verbal agressiya, gunohkorlik hissi.

### АГРЕССИВНЫЕ СИТУАЦИИ В ЛИЧНОСТИ И ПРОБЛЕМЫ ИДЕОЛОГИЧЕСКОЙ ПРОФИЛАКТИКИ

**Ганиева Халимакон Ахматхановна**

*доцент кафедры психологии Ферганского государственного университета.*

**Мелибоев Дениёр Хаётжон угли**

*магистр 1 курс Ферганского государственного университета.*

**Аннотация:** В статье изучаются агрессивные ситуации, являющиеся основой девиантного поведения подростков, а также теоретические и практические аспекты того, какие виды агрессии у них более выражены и какие факторы вызывают это.

**Ключевые слова и фразы:** Личность, подросток, агрессия, девиант, поведение, фрустрация, агрессия, физическая агрессия, косвенная агрессия, гнев, негативизм, фрустрация, ложное подозрение, вербальная агрессия, вина.

### AGGRESSIVE SITUATIONS IN THE INDIVIDUAL AND PROBLEMS OF IDEOLOGICAL PREVENTION

**Ganieva Halimakhan Akhmatkhanovna**

*Associate Professor of the Department of Psychology, Fergana State University*

**Meliboev Doniyor Xayotjon o'g'li**

*master's degree 1 course Ferganskogo gosudarstvennogo universiteta*

**Abstract.** *The article studies aggressive situations that are the basis of deviant behavior of adolescents, as well as theoretical and practical aspects of what types of aggression are more pronounced in them and what factors cause this.*

**Key words and phrases:** *Personality, teenager, aggression, deviant, behavior, frustration, aggression, physical aggression, indirect aggression, anger, negativism, frustration, false suspicion, verbal aggression, guilt.*

Yurtimizda xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod va obod, erkin va farovon hayot, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etilmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, xalqimiz ana shu haqiqatni har tomonlama tushunib yetgani, tanlangan taraqqiyot yo'llimizni ongli qabul qilgani va qo'llab-quvvatlagani oldimizga qo'ygan maqsadlarga erishishning asosiy manbai va garovi ma'naviy tarbiya ekanini hayotning o'zi tasdiqlamoqda.

Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va, albatta, baxtli bo'lib yashashi uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etgan ekanmiz ana shu ezgu niyatlarni ro'yobga chiqarishda va yoshlarimizni mafkuraviy yetukligini tarbiyalashda ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Istiqlol tufayli o'z mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan Respublikamiz yoshlarini yangicha ijtimoiy muhitga tayyorlash, davr ruhida tarbiyalash - shu kunning dolzarb va ustuvor vazifalaridan biridir. Hozirgi

kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan isloxitlarning taqdiri yoshlarning ma'naviy qiyofasiga, shaxsiy barkamolligiga bog'liq. Bu vazifalarni amalga oshirish insoniy o'zaro munosabatlarda demokratik tamoyillarni ongga to'la singdirishni taqozo etadi. Insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar sharqda o'ziga xos va har bir millat psixologiyasiga mos holda shakllantirishdir.

Yaratilayotgan imkoniyatlar pedagoglar oldiga yoshlarni ma'naviy dunyosini boyitish, ularning ongiga milliy g'oya asoslarini singdirish, vatanparvarlik hissini tarbiyalash, o'tmish va buyuk kelajak haqida fikrlash, u bilan fahrlanish hissini, yangicha tafakkurni shakllantirish, bozor iqtisodiyotiga mos keladigan muloqot madaniyatini o'zlashtirishni ta'minlash kabi maqsadlar qo'yiladi. Kishi o'z faoliyatda qiyinchiliklar oldida bo'sh kelmasligi, aksincha, o'zining irodaviy fazilatlari, matonatlilagini namoyon qilgan holda muvafaqqiyat bilan haqiqiy intilishlar o'rtasidagi o'zaro maqbul nisbatni saqlab, ularni yengishi kerak. Lekin ayrim odamlarning intilishlar darajasini pasaytirib yuborgan holda o'zini hurmat qilishni saqlab qolishning ikkinchi yo'lini tanlab olishga, ya'ni o'zinig "Men-siymosi"ni psixologik jihatdan sust muhofaza qilishga urinayotganligiga duch kelishimiz mumkin.

Masalan, psixologik muhofazaning mexanizmlaridan biri, kishi maqsadiga erishish yo'lidagi g'ovlarni bartaraf eta olmagan va frustratsiyaga tushgan paytda ro'y beradigan tajovuzkorlikdan iborat. Tajovuzkorlik ba'zida boshqa odamlarga to'g'ridan

– to‘g’ri hujum qilish shaklida yuz beradi, ba’zan esa faqat to‘siq paydo bo‘lishiga olib keladi. Shu bilan birga shaxslarga nisbatan do‘q – po‘pisa, qo‘pollik, dushmanlik qilishdan emas, tevarak – atrofdagi barcha kishilarga nisbatan “jahldorlik”da ifodalanadi. Ayrim hollarda frustiratsiya kishining hayolida yashirinib qolgan tajovuzkorlikka olib keladi. Hafa bo‘lgan odam amalda hech qanday chora tadbirni boshlamasdan o‘ch olish manzarasini tasavvurida amalga oshiradi. Bahzan frustiratsiya kishining o‘ziga qarshi qaratilgan tajovuzkorlik bilan hal qilinadi. Nihoyat, frustratsiya shaxsning bartaraf etib bo‘lmaydigan to‘siq bilan bog’langan faoliyatini uning uchun ancha yengil faoliyat bilan almashtirishga olib kelishi mumkin. Bolalar orasidagi ijtimoiy og’ish uning o‘sha jamiyatda salbiy sifatlar ta’sirida tarbiyalanishi, salbiy ijtimoiy guruxga kirishi, ijtimoiy rolni egallab, ijtimoiy tajribalarni o‘rganishi sifatida xarakterlanadi. Bu biz uchun masalaning g’oyaviy jihatni, deviant hulq-atvor shakllaridan biri – g’oyaviy deviantlikka olib kelishi mumkin.

Keyingi yillarda voyaga yetmaganlarning deviant faoliyati keskin ortib ketdi. Agar o‘smir xulq – atvori ma’naviyat – ijtimoiy vaziyat – deviant faollik uchligi nuqtai nazaridan kelib chiqib, baholanadigan bo‘lsa, ijtimoiy psixologik va pedagogik omillarni to‘g’ri baholabgina vaziyatni baholash mumkin. Voyaga yetmaganlarning hulqini to‘g’ri tushunish uchun tadqiqotning muqobil usullari zarur bo‘ladi. SHu sababli, bizningcha, bolalar va o‘smirlar orasida olib boriladigan mafkuraviy profilaktika muayyan xususiyatlarga egadir.

Biz deviant xulq-atvorni kelib chiqishiga asos bo‘luvchi agressiv holatlarni, ya’ni o‘smirlarda agressiyaning qaysi turi ko‘proq namoyon bo‘lishini aniqlash maqsadida Bassa-Darki tavsiya etgan 75 ta savoldan iborat savolnomani o’tkazdik. Bu savollar orqali biz o‘smirlardagi 8 xil agressiyani aniqladik, ya’ni bular: jismoniy agressiya, bilvosita agressiya, jahldorlik, negativ(salbiy)lik, hafa bo‘lish, yolg’on gumonsirash, verbal agressiya hamda gunohkorlik hissi.

### 1- jadval

#### Bassa-Darki bo‘yicha o‘smirlardagi agressiv xolatlarni aniqlash ko‘rsatkichlari

Agressiv holatlarni ko‘rsatkichlari								
Agressiy a turlari	Jismoniy agressiya	Bilvosita agressiya	Jahllili k	Negativl ik	Xafa bo‘lish	Yolg’on, gumonsiras h	Verbal	Gunohkorli k xissi
Foiz ko‘rsatkic hi	8,0	6,28	5,2	7,98	7,6	5,17	7,4	8,85

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, guruh a’zolarinig agressiyasi 57,2 foizdan iborat bo‘ldi. Bundan 8,0 foizni jismoniy agressiya, 6,28 foizni bilvosita agressiya, 5,2 foizni

jahllilik, 7,98 foizni negativlik, 7,6 foizni hafa bo'lish, 5,17 foizni yolg'on gumonsirash, 7,4 foizni verbal agressiya, 8,85 foizni gunohkorlik hissi tashkil etdi.

Sinaluvchilarimizdan olingan natijalardan ham ko'rinish turibdiki, o'smirlar o'rtasida gunohkorlik hissi boshqa agressiv holatlarga qaraganda yuqoriroq. Buning sababini o'rganish maqsadida biz manbalarga va o'z kuzatishlarimizga tayandik hamda shunday xulosaga keldik: agressiya holati yuzaga kelishiga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

1. Nasliy ta'sir – bu asosan hayvonlarga nisbatan ishlatiladi. Nasliy boshqarish yo'li bilan agressiyani kuchaytirish yoki susaytirish mumkin. Masalan urushqoq ho'rozlar, urushqoq itlar yetishtiriladi.

2. Bioximik omil – qonning ximik tarkibi agressiv stimullarga nerv sistemasining sezgirligini oshiradi. Qondagi serotonin miqdori ozayib agressiya kuchayadi.

3. Aversiv holatlar – hayajon, ommaviy madaniyat va guruhiy kontekst.

Bundan tashqari, agressiyaga yana oila, OAV, jamiyat, ijtimoiy muhit, tengdoshlar orasidagi munosabat, shaharlarda binolarning zinch joylashganligi, moshinalarning ko'pligi va signallari, ko'chalarining iflos xolda bo'lishi ham ta'sir etishi mumkin.

Insonning ruhiy holatida uning yetarlicha yetuklikka, ongli munosabatga va emotSIONAL barqarorlikka ega bo'lishi muhim hisoblanadi. Ayrim o'smirlar o'z xattiharakatlari, xulqi, kiyinishi, tashqi ko'rinishi, maqsadlariga nisbatan atrofdagilardan salbiy munosabat kutib, o'zini odamlar orasida noqulay sezib, doimiy hijolatpazlik sharoitida yashaydi. Bu ularning "ijtimoiylashuv" darajadasiga bog'liq bo'ladi. "Ijtimoiylashuv", ya'ni bolaning jamiyat a'zosi bo'lib qolishiga imkon beruvchi qoida, xulq-atvor me'yyorlarini o'zlashtirishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashidir. Ijtimoiy psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiylashuvning buzilishi befarqlik tufayli sodir bo'ladi, ya'ni bunda:

- doimiy me'yyordan chiqish holati kuzatiladi;
- asabiy, jazavani qo'zg'ashi va doimiy xafaqonlik xolatiga tushib qoladi;
- ijtimoiy 'assivlik buzg'unchi g'oyalarga nisbatan faollikka ulanib ketadi;
- boshqa xildagi mahnaviy buzilishlar mafkuraviy "otologiya" omili sifatida ro'y beradi.

Bu nuqsonlar shaxsga o'z imkoniyatlarini to'la namoyon qilishga halaqt beradi, bahzan noto'g'ri xulq shakllanishiga va doimiy kuchli hayajonlanish, depressiya, og'ir somatik hamda ruhiy siljishlarga ham olib kelishi mumkin. To'plangan salbiy energiya individual nevrozlarga yoki ijtimoiy nevrozlarga sabab bo'ladi. Nevrozning har ikkala turi ham inson salomatligi va jamiyat barqarorligi uchun xavflidir. SHunday ekan shaxs uchun vaqtiga bilan to'plangan agressiyani chiqarib tashlash, 'sixik taranglikni yumshatib turish muhimdir. Energiyaning uzoq vaqt to'planib turishi esa bir kun kelib uning vulqon ko'rinishidagi keskin harakatlarga aylanib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. 'sixik taranglikni yumshatish uchun dastlab shaxs o'zi uchun vaqt ajratishi, o'ziga ehtibor bilan qarashi, madaniy hordiq olishi uchun imkoniyat yaratishi,

ommaviy bayram tadbirlarida, ommaviy mehnat faoliyatlarida ishtirok etib turishi muhimdir.

Mafkuraviy profilaktika muammolarini hal etishga qaratilgan chora tadbirlarni ishlab chiqarish uchun bolalar va o'smirlar orasida oila, maktab va mahalla hamkorligi yetarli darajada muvofiqlashtirilgan bo'lmos'i lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston", 2017.
2. G'oziyev E.G'. "Ontogenet 'sixologiyasi".-T.: Noshir. 2010
3. Davletshin M.G., Mavlonov M.M, To'ychieva S.M. "Yosh va pedagogik psixologiya" T. TD'U, 2009 .
4. Akhmatkhonovna, G.K. (2021). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF GENIOLOGY ASSIGNMENT IN YOUNG PEOPLE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 335-337.
5. Axmatxonovna, G.A. X., & Iqboljon o'g'li, T.J. (2022). TALABA YOSHLARNING OILADA FARZAND TARBIYASI HAQIDAGI ZAMONAVIY TUSHUNCHALARINING PSIXOLOGIK TAHLILI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(12), 600-606.
6. Ganieva, H. (2021). Social And Psychological Mechanisms Of Self-consciousness Of Students. *European Scholar Journal*, 2(4), 190-193.
7. Akhmatkhonovna, G.K., & Jamshid, T. (2021). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF SUICIDAL BEHAVIOR OF MINORS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 1053-1058.
8. Ахматхоновна, F.X. (2021). Талаба ёшларнинг ўз-ўзини англишини ижтимоий психолигик механизmlари. *ЎзМУ ХАБАРЛАРИ*, 46-49.
9. Akhmadkhonovna, K.G., Rustamovna, A. A., & Saydolimovna, Z. D. (2022). PSYCHOPHYSIOLOGY OF ADDICTION OF NERVOUS PROCESSES AND RAPIDITY OF RECYCLING OF INFORMATION IN YOUTH. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(3).
10. Ganieva, K.A. (2022). PSYCHOPHYSIOLOGY OF ADDICTION OF NERVOUS PROCESSES AND RAPIDITY OF RECYCLING OF INFORMATION IN YOUTH. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(12), 607-613.
11. Ganieva, K.A. (2022). PSYCHOPHYSIOLOGY OF ADDICTION OF NERVOUS PROCESSES AND RAPIDITY OF RECYCLING OF INFORMATION IN YOUTH. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(12), 607-613.

12. Фаниева, X.A., & Закирова, Д. С. (2022). ЎСМИРЛАРДА ХАРАКТЕР АКЦЕНТУАЦИЯСИ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(4), 548-553.
13. Ахматхоновна, F.X. (2022). ШАХС ЎЗ-ЎЗИНИ АНГЛАШИНинг ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК МЕХАНИЗМЛАРИ. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(5), 89-95.
14. Ganieva, K. Iqboljon O'g'li, TJ (2022). Social psychological characteristics of the dysfunctional family. *Academica Globe: Inderscience Research*, 3(7), 71-75.
15. G'Aniyeva, X., & Tojimamatov, J. (2022). TALABA YOSHLARNING OILADA FARZAND TARBIYASI HAQIDAGI ZAMONAVIY TUSHUNCHALARINING PSIXOLOGIK TAHLILI. *Science and innovation*, 1(B7), 517-523.
16. Ganieva, K., & Tojimamatov, J. (2020). THE ATTITUDE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF MENTAL HEALTH OF PERSON. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 87-89).
17. G'Aniyeva, X.A., & Qambarova, M.A. Q. (2023). INTELLEKTUAL SALOHIYATLI YOSHLARNI TARBIYALASHDA O 'QITUVCHI IJTIMOIY INTELLEKTINING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(3), 449-454.
18. X.Фаниева, & Xakimova Mavluda. (2023). ТАЛАБАЛАРДА ГЕНИАЛЛИККА ИНТИЛИШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *Scientific Impulse*, 2(13), 449–454.
19. Фаниева Халимахон Ахматхоновна, & Рузибоева Аълохон. (2023). УДК: 301.085.15. ШАХС ТАРАҚҚИЁТИДА ИЖТИМОЙ МУХИТНИНГ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ. *Scientific Impulse*, 2(13), 455–464.
20. Фаниева X, & Сидикова Барно. (2023). ИНТЕЛЛЕКТУАЛ САЛОҲИЯТЛИ ЁШЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДА ЎҚИТУВЧИ ИЖТИМОЙ ИНТЕЛЛЕКТИНИНГ АҲАМИЯТИ. *Scientific Impulse*, 2(13), 472–477.
21. Ganieva H, & Siddikova Barno. (2023). THE IMPORTANCE OF THE TEACHER'S SOCIAL INTELLIGENCE IN EDUCATING YOUNG PEOPLE WITH INTELLECTUAL COMPETENCE. *Scientific Impulse*, 2(13), 478–483.
22. Pulatova Gulnoza, Toshboltaeva Nodira, //Conflict logical Competence of the Teacher as A Condition for Positive Interaction in the Educational Environment// Eurasian Journal of Research, Development and Innovation. Volume 14 | November, 2022. 14-17 pages.
23. Пулатова, Г. (2021). Theoretical analysis of the study of the phenomenon of bilingualism. *Общество и инновации*, 2(6/S), 200-204.

24. Pulatova, G.M. (2020). WAYS TO INFLUENCE THE CHILD'S PSYCHE THROUGH FAIRY-TALE THERAPY. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 368-371).
25. Pulatova, G., & Muhammadjonov, J. (2023). 5-6 YOSHLI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARING NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA ERTAK VA MAQOLLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(5 Part 3), 48-58.
26. Gulnoza, P., & Nodira, T. (2022). Conflict logical Competence of the Teacher as A Condition for Positive Interaction in the Educational Environment. *Eurasian Journal of Research, Development and Innovation*, 14, 14-17.
27. Nodira, T., Shoxista, M., Gulnoza, P., Yoqutkhon, K., & Mohinur, D. (2022). Exploring the development of creative thinking in small school students. *International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE)*, 14(02), 5701-5707.
28. Пулатова, Г. (2021). Билингвизмни комплекс ўрганишдаги ёндашувлар. *Общество и инновации*, 2(4/S), 769-775.
29. Pulatova, G., & Mamajonova, S. (2020, December). DEVELOPING CHILDREN'S SPEECH IN A FOREIGN LANGUAGE THEORETICAL ANALYSIS. In *Конференции*.
30. Ro'zimatjon, A., & Gulnoza, P. (2022). SHAXSNING SHAKLLANISHIDA STRESS MUAMMOSI VA TURLARI. *SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 5(2), 134-137.
31. Murodilovna, P.G. (2022). AGE CHARACTERISTICS OF SPEECH AND COMMUNICATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(2), 520-523.
32. Пулатова, Г. (2021). Теоретический анализ изучения феномена билингвизма. *Общество и инновации*, 2(6/S), 200-204.
33. Makhliyo Bakhtiyorovna Yuldasheva, Nodira Ibrokhimjanovna Toshboltaeva, Gulnoza Murodilovna Pulatova, Shokhista Kamoldinovna Mamajonova, Yokutkhon Urinbaevna Karimjanova // *Annals of R.S.C.B.*, ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 4, 2021, Pages. 14552 – 14558.
34. Toshboltayeva Nodira, Mamajonova Shoxista, Pulatova Gulnoza, Karimianova Yoqutkhon, Djalolova Mohinur //Exploring the development of creative thinking in small school students// *International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE)*. Vol 14, Issue 02. 2022. 5701-5707 pages.
35. Pulatova Gulnoza, Toshboltaeva Nodira, //Conflict logical Competence of the Teacher as A Condition for Positive Interaction in the Educational Environment// *Eurasian Journal of Research, Development and Innovation*. Volume 14| November, 2022. 14-17 pages.

36. Eleonora Topvoldievna Mirzajonova, Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva //Modern Special Preschool Education: Problems and Solutions// Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Vol. 9. 06-2022. 100-106 pages.
37. Mirzajonova, E.T. (2023). O 'SMIR YOSHDAGI O 'QUVCHILARDA AXBOROTDAN FOYDALANISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(3), 660-669.
38. Pulatova, G., & Muhammadjonov, J. (2023). 5-6 YOSHLI MAKTABGACHA YOSHDAG'I BOLALAR Ning NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA ERTAK VA MAQOLLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. Евразийский журнал академических исследований, 3(5 Part 3), 48-58.
39. Пулатова, Гулноза //Theoretical analysis of the study of the phenomenon of bilingualism// *Общество и инновации* 2.6/S (2021): 200-204.
40. Pulatova, G.M. //WAYS TO INFLUENCE THE CHILD'S PSYCHE THROUGH FAIRY-TALE THERAPY// *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества*. 2020.